



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA TURIZM VAZIRLIGI HUZURIDAGI
KINEMATOGRAFIYA AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I**

“ 04 ” 05 _____ 2023-yil

49a -son

Toshkent shahri

Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki
hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida .

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarni takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-240-son Qarorlari talablari ijrosini ta'minlash maqsadida, **buyuraman**

I. Quyidagilar:

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati I-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi tizim tashkilotlari va hududiy bo'limlarida korrupsiyaviy xatti-harakatlarni baholash uslubiyoti 2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi, hududiy bo'limlari va tizim tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risida nizom 3-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi, uning hududiy bo'limlari va tizimidagi tashkilotlarga aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi, uning hududiy bo'limlari va tizimidagi tashkilotlar xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma 5-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi, uning hududiy bo'limlari va tizimidagi tashkilotlarda kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma 6-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi, uning hududiy bo'limlari va tizimidagi tashkilotlarga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 7-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi, uning hududiy bo'limlari va tizimidagi tashkilotlarda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 8-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi, uning hududiy bo'limlari va tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizam 9-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi, uning hududiy bo'limlari va tizimidagi tashkilotlar xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament 10-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va hududiy bo'limlari xodimlarining odob-axloq qoidalari 11-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligida Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlar rejasi 12-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.


2. Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi kinematografiya agentligining Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki komplaens nazorati (Mamanov) bir hafta muddatda markaziy apparat xodimlarini mazkur buyruqning mohiyati va unda nazarda tutilgan talablar bilan tanishtirsin.

3. Hududiy bo'limlar va tizimdagi tashkilotlari rahbarlari bir hafta muddatda mazkur buyruqni xodimlar o'rtasida uning mohiyati va ahamiyatini tushuntirilishini ta'minlasinlar.

4. Ijro nazorati apparati rahbari (Nazarmuxamedov) ushbu buyruqni Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi kinematografiya agentligining markaziy apparati va hududiy bo'limlari hamda tizim tashkilotlariga ijro uchun yetkazsin.

5. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman,

Direktor



F. Abduxalikov